



**“TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY” KENGASHINING
12-SON MAJLISIDAN
KO‘CHIRMA**

2025-yil “25” Spyl

Toshkent shahri

KUN TARTIBI:

**Turk tilini o‘qitish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmani nashrga tavsiya etish
to‘g‘risida**

(Sh. Xannayev)

Ushbu masala yuzasidan Ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Sh. Xannayev so‘zga chiqib, muallif G. Shirinova tomonidan “Gul Turkeesi” nomli uslubiy qo‘llanma tayyorlanganligi qayd etib o‘tildi. Ushbu qo‘llanma chet elliklarga turk tilini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan keng qamrovli manbadir. Tarkibi, turk tili grammatikasining asosiy qoidalaridan, lug‘at boyligi va kundalik so‘zlashuv nutqigacha bo‘lgan keng ko‘lamli masalalarni qamrab oladi. Kitob tildan to‘g‘ri foydalanishni va turk madaniyati bilan tanishishni o‘rgatishning samarali usulini taklif etadi. U talabalarga turk tilini tushunish, gapirish va yozishga yordam beradigan ko‘plab mashqlar va amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, kitob turk tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engishga yordam beradigan amaliy maslahatlar va strategiyalarni taqdim etadi. Har bir bo‘lim tilning turli jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, talabalarga til ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga imkon beradi.

Mazkur uslubiy qo‘llanma Tashkent International University Xorijiy tillar kafedrasida 2025-yil 30-iyundagi 4-son majlisida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilganligi aytib o‘tildi. Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kata o‘qituvchisi, PhD N. Altinbayev hamda Tashkent International University dotsenti, PhD Z. O‘lmasxo‘jayev tomonidan taqriz berilganligi qayd etildi.

**Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalarni inobatga olib,
UNIVERSITET KENGASHI QAROR QILADI:**

1. Ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Sh. Xannayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. G. Shirinovaning uslubiy qo'llanmasi nashrga tavsiya etilsin.

3. Direktorning tashkiliy-moliyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari J. Yo'ldashevga:

Universitet hisobidan G. Shirinovaning uslubiy qo'llanmasini nashr etish bilan bog'liq xarajatlari belgilangan tartibda amalga oshirilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Sh.Xannayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibi



Z. O'lmasxo'jayev